

UDK: 632:632.7.08

TAMAKINI TRIPSDAN HIMOYA QILISHNI AGROTEXNIK USULI

Murodov Inomjon Quvondiq o'g'li, Omonqulov Dilmurod Baxodir o'g'li

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali

Abstract: *Tobacco thrips feeds on the leaves and flowers of a wide variety of plants. Among the pests there is also a goose. It also harms tobacco, alfalfa, cucumbers (especially in greenhouses), onions, cabbage and other crops.*

Keywords: *tobacco thrips, winter breeds, environmental control, agrotechnical measures, soil, plowing, climate, plant, raw materials.*

Kirish: Tamaki tripsga qarshi ekologik kurash usulining asosini agratexnik tadbirlar tashkil qiladi. Kuzgi chuqur shudgorlash zararkunandalarga qarshi kurashda muhim ahamyatga ega. Voyaga yetgan trips qishlovga ketadi. Qishlovchi zotlar o'simlik qoldiqlarining ostida, tuproqning yuza qismida qishlab qoladi. Shu sababli, Samarqand viloyati Urgut tumanida tamaki yetishtirishda kuzgi shudgorlash muhim ahamyat kasb etadi va bu tadbirning tamaki tripsi qishlashiga ta'siri ushbu hududda umuman o'rganilmagan. Tuproqni shudgorlash qancha chuqur o'tkazilsa, o'simlik trips bilan zararlangan barglar soni shuncha kam bo'lishligi aniqlandi. Yerni chuqur shudgorlash tuproq yuza qismidagi o'simlik qoldiqlarida va tuproqdagi qishlayotgan tamaki tripsining voyaga yetganlari tuproqning chuqurroq qatlamiga tushib, nobud bo'ladi [3].

Tadqiqot usullari. Tuproqni ag'darib 22 sm chuqurlikda shudgorlash trips bilan zararlangan barglar soni o'rtacha 14,8 dona yoki umumiy barglarning 55,8 % ni tashkil qilgan bo'lsa 30 sm chuqurlikda shudgor qilinganda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 8,2 dona 27,5 % ga teng bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, yerni chuqur shudgorlash ma'lum darajada trips zararlanishini kamaytirishi aniq. Lekin, bu agratexnik tadbir yuqori samara bermasligiga sabab, tamaki tripsi bilan asosan begona o'tlar, daraxtlar hamda dala chetlaridagi organik qoldiqlardan o'tishi hisobiga zararlanadi. Maydonlarni chuqur shudgorlash (30 sm gacha) tamaki trips bilan zararlanishini kamaytiribgina qolmay, uning hosildorligi va xom ashyo sifatini ham ancha oshiradi (1-jadval) [4]. Bunda tamaki hosildorligi nazorat variantiga nisbatan o'rtacha 11,4 % ga va xomashyo sifati esa 36,1 % gacha oshganligi qayt etildi. Bu ko'rsatkichlar 2023 yili 9,2 % va 28,5 % larni tashkil

qilgan bo'lsa, 2024 yil mos ravishda 13,6%, 43,7 % teng bo'ldi. Bu oradagi farq tamaki yetishtirish davrida ob-havoning qulay bo'lganligi bilan izohlanadi.

1-jadval


Tuproqni ishlashning tamaki trips bilan zararlanishi, uning hosildorligiga va xom ashyo sifatiga tasiri (2023-2024 yillar.)

№	Tuproqni shudgorlash usullari	O'simlikdagi umumiy barglar soni, dona	Trips bilan zararlangan barglar soni, dona	Zararlanganlik koeffitsienti	Hosildorlik, kg/ga	Nazoratga nisbatan %	Oliy navli xom ashyoning chiqishi, %
1	Tuproqni shudgorlash -22 sm gacha (nazorat)	26,5	14,8	55,8	893	100,0	23,8
2	Tuproqni shudgorlash -30 sm	29,8	8,2	27,5	995	111,4	32,4
3	Tuproqni shudgorlash -15 sm	24,5	16,3	66,5	723	81,0	15,8
4	Tuproqni shudgorlash -10 sm	23,4	17,5	74,7	610	68,3	9,2

Tuproqning yuza qatlami 10-15 sm shudgorlash esa trips bilan zararlanishni birmuncha kuchaytiradi. Tuproq chuqurligi 15 sm qilib shudgorlashda trips bilan zararlangan barglar miqdori nazorat variantga nisbatan 10,7 % ga ko'paydi, bunda tamaki hosildorligi 19 % ga xomashyo sifati esa 33,6 % ga kamayib ketganligi aniqlandi. Tuproqni yuza qatlamini shudgorlash Samarqand viloyati Urgut tumanida tamaki yetishtirishda uning hosildorligini va xomashyo siftini keskin pasayeb ketishiga olib keladi, oqibatda tamakichilikdan olinadigan iqtisodiy daromadni keskin kamayishiga sabab bo'ladi. Albatda, tumanning tog' va tog' oldi qismi tuproq tarkibida tosh va qum zarralari ko'p bo'lishligi yerni hamma maydonlarda va har yili ham chuqur shudgorlash imkonini bermaydi. Shuning uchun tuproqni chuqur shudgorlashni har 2-3 yilda bir marta o'kazish maqsadga mofiqdir.



1-rasm



2-rasm

Xulosa. Tamaki mahsuldorligi tuproqni qanchalik chuqur yumshatilishiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tamaki navining biologik xususiyatlari va hududlarning hamda aniq maydonning tuproq hamda iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tuproqqa to‘g‘ri ishlov berish usulini tanlash tamakini tripsdan zararlanishi kamaytirish bilan birga tamaki hosildorligini va xomashyo sifatini oshirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Яхонтов В.В. Урта Осейо Қишлоқ хўжалиги зараркундалари. - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб», 1962.
2. Agrar fani va ishlab chiqarishini rivojlantirishda yosh tadqiqotchilarning o‘rni va istiqboldagi vazifalar. Samarqand 2012 yil
3. Умурзаков Е.У., Ахмедов С.И. Интегрированная защита табака табака от вредителей в Узбекистане. //Научноеобеспечение инновационных технологий производства и хранения сельскохозяйственной и пищевой продукции. Сборникматериалов 1 международной научно- практической конференции. Всероссийский НИИ табака, махорки и табачных изделий, Россия, Краснодар, 2018.